

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAFOVUTLARINING KELIB CHIQUISH OMILLARI

Burxonova Yulduzxon Botirali qizi

Fa'rg'ona davlat universiteti magistr talabasi

yulduzxonburxonova220501@gmail.com

Jurayev Islom Mamasodikovich

Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti Ingliz filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning semantik tafovutlari hamda ularning kelib chiqish omillari tahlil qilinadi. Semantik farqlarning yuzaga kelishida ekstralingvistik va lingvistik omillarning o'rnini yoritilib, tillararo qiyosiy misollar asosida izohlanadi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning ma'nosi xalqning madaniyati, tarixi va tilning ichki qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *frazeologik birliklar, semantik tafovut, ekstralingvistik omillar, lingvistik omillar, milliy-madaniy omillar, denotativ sema, konnotativ sema, obraz, polisemiya, ekvivalentlik.*

Ingliz va o'zbek tillaridagi turli semali frazeologik birliklarni semantik tahlil qilish jarayoni va tahlil natijalariga ko'ra shuni aytish mumkinki, bu ikki tilda bir-biriga ham ma'no jihatidan ham birliklarda ishlatiladigan obrazlar jihatidan to'liq mos tushadigan ekvivalentlar juda kam foizni tashkil etadi. Ikki tilda ham, asosan, bir-biriga ma'no jihatidan yaqin, lekin ularda ifodalangan obrazlar va boshqa jihatlarga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi to'liq bo'lmagan ya'ni qisman ekvivalentlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shuningdek, har ikkala tilda ham faqatgina o'sha tilga, madaniyatga va boshqa omillarga asoslangan holda shakllangan frazeologik birliklar ham mavjuddir. Bu birliklar shunday birliklarki, ularning tub ma'nosini va haqiqiy bahosini faqatgina o'sha tilning foydalanuvchilari anglab yeta oladi. Bu birliklarning boshqa bir tilda ekvivalentini topib yoki to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib ham bo'lmaydi. Ular transliteratsiya va transkripsiya yoki tavsifiy tarjima usullari orqaligini bir tildan ikkinchisiga tarjima qilinadi. Frazeologik birliklarning semantik tafovutlari tillararo qiyosiy tahlilda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki frazeologizmlar oddiy leksik birliklardan farqli ravishda xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti va madaniy qarashlari asosida shakllanadi hamda til tizimida obrazli va ekspressiv birlik sifatida mustahkamlanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi turli semali frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida ham semantik tafovutlar, shu kabi tarjima masalalari va muammolari yuzaga keladi. Bu semantik tafovutlarning kelib chiqishi esa turli xil omil va sabablarga borib taqaladi. Bu omillar umumiy holda ikki turga ajralib o'rganiladi va

tahlil qilinadi: 1) ekstralingvistik omillar; 2) lingvistik omillar. Bu haqida Kunin ham o'zining "Курс фразеологии современного английского языка" ("Zamonaviy ingliz tili frazeologiyasi kursi") nomli asarida "Frazeologik birliklarning semantik tafovutlari ko'pincha frazeologik ma'noning shakllanish jarayonida til ichki va tashqi omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi" deya ta'kidlagan⁵.

1) Ektralingvistik omillar deganda, milliy-madaniy, tarixiy-madaniy, tarixiy-etimologik va shu kabi omillar tushuniladi. Chunki Frazeologiya maktabining umumiy xulosasiga ko'ra, frazeologik birliklarning umumiy mazmuni tarkibiy qismlarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmay, til va madaniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan obrazli tafakkur natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, Kunin "Frazeologik birliklarda xalqning tarixi, uning madaniyati va turmush tarzining o'ziga xosligi aks etadi. Frazeologizmlar ko'pincha yaqqol milliy xarakterga ega bo'ladi⁶" deya o'zining "Курс фразеологии современного английского языка" ("Zamonaviy ingliz tili frazeologiyasi kursi") nomli asarida ta'kidlagan. Masalan, milliy-madaniy muhit frazeologik birliklarning obraz va semantik mazmunini belgilovchi asosiy manba sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni har bir xalqning millati va madaniyatiga xos bo'lgan urf-odatlar, qadriyatlari, mentaliteti, hayot tarzi va shu kabi jihatlari frazeologik birliklarda o'z aksini topadi. Masalan, ingliz tilida garstronomik semaga oid frazeologizmlarda "tea,bacon" ("bring home the bacon", "save someone's bacon", "not my cup of tea", "as cheap as tea", "storm in a teacup", "about as useful as a chocolate teapot"⁷) ya'ni *choy* va *cho'chqa go'shti* kabi oziq-ovqat nomlari ko'p uchrasa, o'zbek tilida esa "osh" ("osh bo'lsin", "oshi halol", "oshiga pashsha tushmoq", "pishgan osh", "oshini osh, nonini non qilmoq") kabi ovqat nomlari ko'p qo'llanadi. Buning natijasida bir tilda keng tarqalgan obrazlar boshqa tilda uchramasligi yoki boshqa semantik tusda va obrazlarda ifodalanishi mumkin.

Ektralingvistik omillardan yana biri - bu tarixiy-madaniy-etimologik omil bo'lib, frazeologik birliklarning ko'pchiligi tarixiy jarayonlar, jamiyat hayoti, xalqning dunyoqarashi va turmush tarzi, kasb-hunar faoliyati yoki ijtimoiy munosabatlar natijasida shakllangan. Ya'ni ularning ma'nosi muayyan tarixiy davr bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Shu sababli ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning semantik tafovutlarining kelib chiqish omillaridan biri sifatida har ikki xalqning tarixiy taraqqiyot yo'lining turlicha ekanligi ko'rsatiladi. Masalan, ingliz tilidagi "to burn one's boats/bridges", "a white elephant" kabi frazeologik birliklar tarixiy, g'arb madaniyatiga xos hamda etimologik ildizlarga ega. "To burn one's boats/bridges" frazeologik birligining kelib chiqishi urush va harbiy yurushlarga borib taqaladi. Qadimda qo'shinlar yangi hududga kirganda, orqaga qaytish yo'lini qoldirmaslik, ya'ni askarlar ortga qaytolmasliklari uchun qo'mondan ko'priklarni yoqib yuborgan. Bu harakatning

⁵ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 81.

⁶ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 5.

⁷ Oxford Advanced Learner's Dictionary. – Oxford: Oxford University Press, 2014.

ma'nosi esa qat'iy qaror qilinganligi, endi faqat oldinga borish mumkinligi, ortga qaytish yo'li yo'qligini anglatgan. Keyinchalik ma'no ko'chishi natijasida bu ibora faqat urushga emas, hayotga ham qo'llana boshlab, "ishni tashlab ketish", "munosabatlarni batamom tugatish/uzish" va "imkoniyatni yo'qotish" ma'nolarini anglatmoqda. "White elephant"⁸ iborasining kelib chiqishi Janubiy-Sharqiy Osiyo, ayniqsa Tailand bilan bog'liq bo'lib, qadimda Tailand podshohlari uchun oq fil(white elephant) muqaddas va juda noyob hayvon hisoblangan va oq fillarni ishlatish gunoh hisoblanganligi uchun ularni ishlatish mumkin bo'lmagan. Shuningdek, oq fillarni sotib yuborib ham bo'lmasdi va ularni faqat boqish kerak bo'lib, bu ko'p ovqat, katta joy, xizmatkorlar va parvarish talab qilgan. Rivoyatlarga ko'ra, podshohlar o'zi yoqtirmagan odamlarga "sovg'a" sifatida oq filni berishgan va bu sovg'a tashqaridan qaraganda qimmatli ko'rinsada, foydasi yo'q, faqat xarajat edi aslida. Shuning uchun hozirgi ma'nosi "qimmat, lekin foydasiz narsa" yoki "ko'p xarajat talab qiladigan, lekin keraksiz mulk/loyiha" deganidir. O'zbek tilidagi "to'nini teskari kiymoq", "ostonasi tilladan bo'lmoq" kabi frazeologik birliklar ham chuqur tarixiy, sharqona madaniyat hamda etimologik ildizlarga borib taqaladi. "To'nini teskari kiymoq"⁹ iborasidagi *to'n* qadimgi davrlarda eng muhim kiyimlardan biri bo'lib, qadimda jangchilar va lashkarboshilar harbiy va jangovar holatning murosasiz ekanligini ko'rsatish uchun to'nlarini teskari kiyishgan. Shuningdek, inson qattiq jahlda yoki shoshilinch vaziyatdaligida to'nini teskari kiyib olish vaziyatlari kuzatilgan va shu kabi vaziyatlarga nisbatan to'nini kiyib olish harakati qo'llangan. Hozirgi kunga kelib bu iboraning ma'nosi "qaysarlik qilish", "arazlash" yoki "fe'li aynish" kabi ma'nolarni anglatadi. "Ostonosi tilladan bo'lmoq" iborasining kelib chiqish ildizlari esa qadimgi podshohlar, amirlar va juda boy savdogarlarning sharqona hashamatli saroylarining ostonalariga borib taqaladi. Chunki qadimda podshohlar, amirlar va boy savdogarlar o'z saroylarinig haybatini ko'rsatish uchun darvoza va ostonalarga alohida e'tibor berib, ostonalarini qimmatbaho metallar yoki tilla suvi yuritilgan naqshlar bilan bezatishgan. O'zbek va ko'plab sharq xalqlari madaniyatida ostona muqaddas chegara, uyning boshlanish joyi sifatida ko'riladi va "ostonasi tilladan bo'lmoq" iborasi umumiy ma'noda o'ta boylikni ifodalashda, havas qilish yoki duo qilishda qo'llanadi. Shuningdek, ekstralingvistik omillardan yana biri - bu geografik joylashuv va tabiat omili(linguogeografik omil yoki tabiiy-geografik omil deb ham yuritiladi). Frazeologizmlarning kelib chiqishi va shakllanishida xalq yashab turgan geografik muhit, iqlim va landshaft va undagi hayvonot va o'simlik(fauna va flora) dunyosi ham asosiy obrazlar vazifasini o'taydi. Buning sababi shundaki, inson o'z kundalik hayotida va tabiiy olamida nimani ko'p uchratsa va ko'rsa, o'sha narsalar asosida iboralar yaratadi. Misol uchun, Buyuk Britaniya orol davlat bo'lgani va iqlimi nam

⁸ Cambridge Idioms Dictionary. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013.

⁹ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.

bo'lgani uchun bu davlat hududida o'rmon, dengiz yomg'ir bilan bog'liq obrazlar ko'p uchraydi. Masalan, "cannot see the wood for the trees", "to be a wallflower", "a red herring", "any port in a storm", "to be in the same boat" kabi frazeologizmlarni ingliz xalqi o'zlari yashagan hudud va undagi tabiiy muhitni kuzatishi natijasida yaratgan. O'zbekiston hududi esa kontinental iqlimda, keng tekisliklar va cho'l-adirlarda joylashganligi uchun dala, sahro va qishloq xo'jaligi obrazlari ustuvor bo'lib, "tog'ni talqon qilmoq", "tuyaning dumi yerga tegganda", "tuya hammomni orzu qilibdi", "suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib" kabi frazeologizmlar uchraydi.

Diniy va mentalitet omili - har ikki tilda frazeologik birliklarning semantik tafovutlarining kelib chiqishida alohida o'rin egallaydi. Kunin ingliz frazeologiyasida Bibliya ta'siri juda kuchli ekanini yozadi va Bibliyadan kirib kelgan iboralar soni juda ko'pligini quyidagicha ta'kidlaydi: "Asrlar davomida Bibliya Angliyada eng ko'p o'qilgan va eng ko'p iqtibos keltirilgan kitob bo'lgan; nafaqat ayrim so'zlar, balki butun-butun idiomatik(ibora) ifodalar ham Bibliya sahifalaridan ingliz tiliga kirib kelgan¹⁰". Kunin bunga misol tariqasida "in the twinkling of an eye", "cast pearls before swine", "a wolf in sheep's clothing" singari frazeologizmlarni keltirgan. Kunin shuningdek, "Bibliyaviy kelib chiqishga ega frazeologik birliklar ko'pincha o'zlarining Bibliyadagi asl prototiplari(asl shakllari) bilan ko'p jihatdan mos kelmaydi¹¹" deb ham yozadi. Qolaversa, Kunin mentalitet jihatidan kelib chiqqan holda "Asl ingliz frazeologik birliklari ingliz xalqining an'analari, urf-odatlari va e'tiqodlari(ishonchlari) bilan, shuningdek realiyalar, rivoyatlar, va tarixiy faktlar bilan bog'liqdir¹²" deya ta'kidlaydi. O'zbek tilidagi frazeologizmlarda ham din, diniy e'tiqod va boshqa sabablarga asoslangan holda shakllangan milliy mentalitetning ta'siri yaqqol ko'rinib turadi. Masalan, "Xudoga shukr", "Xudo xohlasa", "Xudo ko'rsatmasin", "Halol luqma", "Haq yo'l", "Duo qilmoq" kabi birliklar diniy omilga oid frazeologizmlar misol bo'la olsa, "Ota-onani rozi qilmoq", "Oq yo'l tilamoq", "Or-nomusni saqlamoq", "Ko'nglini olmoq", "Yuzi yorug' bo'lmoq", "Mehmon otangdan ulug'" kabi frazeologizmlar mentalitet asosida shakllangan birliklarga misol bo'ladi.

2) Lingvistik omillar - bu frazeologik birliklarning semantik tafovutlari tilning ichki qonuniyatlari asosida yuzaga kelishini bildiradi. Ya'ni sabab madaniyat, tarix, din yoki mentalitetda emas, balki til tizimining o'zida bo'ladi. Kunin yuqorida nomi keltirilgan asarida lingvistik omillarning quyidagilarini aniq asoslab bergan:

a) frazeologik qayta ma'nolanish usullari(перееосмысление) - metafora, metonomiya, evfemizm, taqqoslash orqali ma'no ko'chishi

¹⁰ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 116.

¹¹ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 116.

¹² Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 84.

- b). konnotatsiya(коннотативный аспект) va uning semalari(emotsional-ekspressiv bo'yoq)
- c). semantik strukturadagi murakkablik(осложненность семантики)
- d). motivlangan va motivlanmagan frazeologizmlar
- e). polisemiyaga oid xususiyatlar(полисемия)
- f). lisoniy asimmetriya(асимметрия)

Kunin ta'kidlashicha, frazeologik ma'noning shakllanishi qayta ma'nolanish(qayta talqin) jarayoni bilan bogvliq bo'lib, uning turlari sifatida metafora, metonimiya, evfemizm va taqqoslashni tillararo semantik tafovutlarning lingvistik omillari sifatida keltiradi¹³. Semantik qayta ma'nolanishning eng muhim turlaridan biri metafora hisoblanadi. Metafora asosida yuzaga kelgan ma'no ko'chishi til ichki va tashqi omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi, shu sababli u turli tillarda turlicha obrazlar orqali namoyon bo'ladi va semantik tafovutlarni keltirib chiqaradi¹⁴. Shuningdek, metafora obrazlilik hamda emotsional baholash kabi konnotativ semalarni faollashtirib, frazeologizmlarning ekspressiv qiymatini oshiradi, bu esa tillararo ekvivalentlikni murakkablashtiradi¹⁵. Shuningdek, Kuninga ko'ra, ko'plab frazeologizmlar erkin birikmalarning metaforik qayta talqin qilinishi asosida shakllanadi., bunda ma'no ko'chishi harakatlar o'xshashligi asosida yuz beradi¹⁶. Bunga misol sifatida Kunin o'z asarida "burn one's fingers" keltirib, bu ibora dastlab literal ma'noda qo'llangan bo'lsa, keyinchalik metaforik qayta talqin natijasida "biror narsada kuyib qolmoq, zarar ko'rmoq" ma'nosini anglatadiga frazeologik birlik sifatida shakllangan¹⁷.

Metonimiyani Kunin, fantaziyani inkor qilib, odatda yaqinlik(смежность) asosidagi assotsiatsiyaga tayangan bo'ladi deya ta'riflaydi¹⁸. Bunga misol tariqasida Kunin ingliz tilidagi "Downing Street" iborasi joy nomi bo'lishiga qaramay, metonimik ko'chish orqali "ingliz hukumati" ma'nosini anglatishini berib o'tadi¹⁹. Shuningdek, Kunin metafora va metonimiya o'rtasidagi farqni quyidagicha izohlaydi: "Metaforada metonimiyaga qaraganda abstraksiyalashuv darajasi yuqoriroq va denotatdan uzoqlashish kuchliroqdir". Ya'ni metaforik ko'chirish jarayonida ma'no real predmet yoki hodidasan ko'ra ko'proq tasavvuriy va umumlashtirilgan konseptual qatlamga yaqinlashadi. Metonimiyada esa bunday uzoqlashish kamroq kuzatiladi, ya'ni u tasavvurni inkor qilgan holda, ko'proq bevosita aloqadorlik va yaqin bog'liqlik asosida

¹³ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 81.

¹⁴ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 81.

¹⁵ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 92

¹⁶ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 157.

¹⁷ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 26.

¹⁸ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 144.

¹⁹ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 128.

shakllanadi. Shu bois metafora kognitiv va semantik jihatdan murakkabroq bo'lib, u yuqori darajadagi abstrakt fikrlashni talab qiladi. Metonimiya esa nisbatan konkret va denotativ asosga yaqin qoladi²⁰.

Evfemizmlar, A.V.Kunin nazariyasiga ko'ra, frazeologizmlarning semantik shakllanishida "to'g'ridan-to'g'ri nominatsiyadan qochish" mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Ular shunchaki so'z o'rniga so'z qo'yish emas, balki tilning obrazli tizimi orqali voqelikni qayta anglash(пересмысление) natijasidir. Evfemistik frazeologizmlarda konnotativ semalar denotativ ma'noga qaraganda ustuvorlik qiladi, bu esa ularning nutqdagi pragmatik funksiyasini belgilaydi, ya'ni o'ziga xos milliy-madaniy bo'yoq beradi²¹. Buning natijasida esa evfemizmlarda lisoniy assimetriya yuzaga keladi.

Konnotatsiya va uning semalari frazeologik birliklarda semantik tafovutlarning kelib chiqishiga yana bir omil hisoblanadi. A.V.Kuninning nazariyasiga ko'ra konnotatsiya - bu frazeologik birlik ma'nosining makrokomponenti bo'lib, so'zlovchining borliqqa bo'lgan baholovchi, hissiy, ifodali(ekspressiv) va vazifaviy-uslubiy munosabatini ifodalaydi²². Shuningdek, Kunin konnotatsiyani tarkibiy semalarning ya'ni mikrokomponentlarning yig'indisi sifatida tahlil qiladi, ya'ni tarkibiy semalar quyidagilar: a) emotivlik semasi; b) baholash semasi; c) ekspressivlik semasi; d) vazifaviy-uslubiy sema; e) obrazlilik semasi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, frazeologik birliklarning semantik tafovutlari faqatgina ularning lug'aviy ma'nosiga(denotatiga) emas, balki ko'p jihatdan konnotativ aspektiga bog'liqdir. A.V.Kunin nazariyasiga ko'ra, konnotatsiya tarkibidagi emotiv, baholovchi, ekspressiv va uslubiy semalarning o'zaro nisbati frazeologizmning o'ziga xos semantik strukturasi belgilaydi. Tillararo qiyosiy tahlilda aynan obrazlilik semasining nomutanosibliigi va konnotativ bo'yoqning turli darajadaligi frazeologik birliklar orasidagi asosiy tafovutlarni yuzaga keltiruvchi lingvistik omillardir²³.

Frazeologik birliklarning semantik strukturadagi murakkabligi, A.V.Kunin nazariyasiga ko'ra, nafaqat ularning o'ziga xosligini, balki tillararo semantik tafovutlarning(differensiyalanishning) eng asosiy sababini ham belgilaydi²⁴. Frazeologik ma'noning ko'p qirraliligi(многომерность значения) tafovutlar keltirib chiqaruvchi birinchi omildir. Har bir tilda denotativ, konnotativ va pragmatik komponentlarning salmog'i turlicha bo'lishi semantik differensiyalashuvga sabab

²⁰ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 144.

²¹ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 81.

²² Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С.161.

²³ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – с. 160-175.

²⁴ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 157.

bo'ladi²⁵. Masalan, bir tildagi iborada denotativ qism ustunlik qilsa, uning boshqa tildagi ekvivalentida konnotativ qism yetakchi bo'lishi mumkin. Bu esa iboralarning ma'nodosh bo'lsada, semantik jihatdan farqlanishiga olib keladi. Keyingi muhim omil - bu "yaxlitlik va bo'linganlik ziddiyatidir" ("Противоречие между целостностью значения и раздельнооформленностью компонентов"). A.V.Kunin ta'kidlaganidek, frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlarning individual ma'nolari va umumiy yaxlit ma'no o'rtasidagi qarama-qarshilik har bir tilda o'ziga xos tarzda modellashtiriladi²⁶. Har bir til o'zining leksik tarkibidan kelib chiqib, bir xil tushunchani turli komponentlar yordamida "bo'laklaydi". Bir tilda tushuncha fe'l va ot birikmasi orqali modellashtirilsa, boshqasida butunlay boshqa komponentlar tanlanadi. Bu struktura farqi ma'no nuanslarini ham o'zgartiradi.

Konnotativ semalarning zanjirsimon bog'liqligi uchinchi omil hisoblanadi, ya'ni konnotativ semalar(emotivlik, baholash, ekspressivlik) bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, bir semadagi kichik nomutanosiblik butun bir frazeologik birlikning semantik strukturasida jiddiy tafovutlarni yuzaga keltiradi²⁷. Masalan, bir frazeologik birlikdagi ekspressivlikning kuchayishi avtomatik ravishda baholash semasini ham o'zgartiradi.

Frazeologik birliklarning semantik tafovutlarining kelib chiqishining lingvistik omillaridan yana biri - bu polisemiya ya'ni ko'p ma'nolilik. Bir xil strukturali frazeologik birlikning turli ma'nolarda qo'llanilishi semantik tafovutlarning eng asosiy manbalaridan biridir. Polisemiya frazeologik birlikning ichki semantik rivojlanishi natijasida yuzaga keladi. Bu jarayon asosan birlamchi frazeologik ma'noning qayta ma'nolanishi(ikkinchi darajali derivatsiya) asosida sodir bo'ladi, ya'ni frazeologik birlikning semantik strukturasini murakkablashadi, lekin uning ma'nolari o'rtasida hamisha genetik yoki semantik bog'liqlik saqlanib qoladi²⁸. Polisemiyaning semantik tafovutlardagi roli shundaki, taqqoslanayotgan tillarda bir xil shaklga ega bo'lgan iboralar turlicha ma'no qirralariga(semalarga) ega bo'lishi mumkin. Bu tillararo "semantik nomutanosiblik"ni keltirib chiqaradi. Sababi shundaki, bir tilda ibora faqat bitta ma'noga ega bo'lsa (monosemiya), boshqa tilda u polisemantik xarakterga ega bo'lishi mumkin. Natijada, ma'nolarning miqdori va ularning qo'llanilish doirasi (kontekstual valentligi) tillarda farq qiladi. Bunga misol tariqasida A.V.Kunin ingliz tilidagi "to go through the mill" frazeologik birligining polisemantik strukturasini tahlil

²⁵ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 158.

²⁶ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 159.

²⁷ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 160.

²⁸ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 153.

qilib bergan²⁹. Unga ko'ra, bu ibora ingliz tilida polisemantik xususiyatga ega bo'lib, uning asosan ikkita ma'nosi kuzatiladi. Birinchi ma'nosi "qattiq sinovlardan o'tmoq, hayotiy qiyinchiliklarni boshdan kechirmoq" bo'lib, bu yerda asosiy urg'u insonning tajriba o'ttirishi va chiniqishiga qaratilgan. Ikkinchi ma'nosi esa "qattiq tekshiruvdan yoki ishlovdan o'tish" bo'lib, masalan, hujjatlarning sinchiklab ko'rib chiqilishi ma'nosida qo'llanadi. Umuman olganda, ingliz tilidagi bu frazeologik birlikning polisemantik strukturasi va ma'nolari ham insoniy tajribani, ham texnik ishlovni ifodalaydi. Lekin, ushbu iborani o'zbek tilidagi qisman muqobili "tegirmondan butun chiqmoq" iborasi bilan qiyoslasak, o'zbek tilida faqat "xavf-xatardan omon qolmoq" ma'nosini beradi va faqatgina hayotiy sinov semasi saqlanib qoladi. Ya'ni "to go through the mill" iborasining ikkinchi (texnik/protsessual) ma'nosi o'zbek tilidagi muqobil ekvivalentida uchramaydi. Bu esa bir tildagi polisemiya(ko'p ma'nolilik) ikkinchi tilda monosemiya bilan to'qnash kelganda, semantik bo'shliqlar (lakunalar) yoki ma'no torayishi yuzaga kelishini ko'rsatadi va shu hodisalar orqali qiyoslanayotgan tillardagi frazeologik birliklarda semantik tafovutlar yuzaga keladi. Ushbu hodisani, aksincha o'zbek tili misolida tahlil qilinsa ham, aynan shunday hodisalar yuzaga keladi. Masalan, o'zbek tilidagi "boshiga ko'tarmoq" iborasi polisemantik xarakterga ega bo'lib, birinchi ma'nosi ijobiy konnotatsiyada bo'lib, "haddan tashqari hurmat qilmoq, e'zozlamoq" ma'nolarini anglatadi. Ikkinchi ma'nosi esa salbiy konnotatsiyada kelib, "to'polon qilmoq, shovqin-suron ko'tarmoq" ma'nolarini beradi. Agar ushbu iborani ingliz tilidagi muqobil ekvivalenti "to praise to the skies"³⁰(ko'klarga ko'tarib maqtamoq) bilan qiyoslasak, ingliz tilidagi ekvivalentida faqat ijobiy ma'no mavjuddir va bu birlik faqat monosemantik xarakterga ega hisoblanadi. O'zbek tilidagi iboraning ikkinchi "to'polon qilmoq, shovqin-suron ko'tarmoq" ma'nosi ingliz tilidagi ekvivalentida mutlaqo mavjud emas. Ya'ni o'zbek tilidagi iboraning ikkinchi ma'nosi ingliz tilidagi muqobilida umuman mavjud bo'lmaganligi uchun ingliz tilida lakuna(bo'shliq)ga aylanadi yoki bu iboraning ma'nolari ingliz tilida faqatgina bir ma'no anglatishi tufayli ma'no torayishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklarning semantik tafovutlarining kelib chiqishiga ham ekstralingvistik ham lingvistik omillar ta'sir ko'rsatadi. Ekstralingvistik omillar frazeologik birliklarning shakllanishiga tashqi tomondan ta'sir ko'rsatsa, lingvistik omillar esa tilning o'zining ichki hodisalari orqali yuzaga keladi. Shuningdek frazeologik birliklarning semantik tafovutlarining kelib chiqish omillari Bally, Vinogradov, Kunin, Amosova va shu kabi rus va g'arb tilshunoslarining frazeologiya nazariyasiga oid tadqiqotlarida hamda Rahmatullayev va Yo'ldoshevning o'zbek frazeologiyasiga bag'ishlangan ilmiy ish va asarlarida keng yoritilgan.

²⁹ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – с. 153-155.

³⁰ Longman Dictionary of Contemporary English. – London: Pearson Education, 2015.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996.
2. Cambridge Idioms Dictionary. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
4. Oxford Advanced Learner's Dictionary. – Oxford: Oxford University Press, 2014.
5. Longman Dictionary of Contemporary English. – London: Pearson Education, 2015.